

## TARIXIY ROMANLARDA MADANIY HAYOT TASVIRI (P.QODIROVNING “ONA LOCHIN VIDOSI”, SH.ISAXONOVANING “BIBIXONIM” ROMANLARI MISOLIDA)

**Mirsharipova Shahzoda Shavkat Qizi**

*BuxDU o'zbek tili va adabiyoti mustaqil tadqiqotchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit soʻzlar:** tarixiy roman, turkiy xalqlar madaniyati, urf-odatlar, anʼana, qadriyat, madaniy hayot, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.

### Annotatsiya

Maqolada turkiy xalqlar madaniyati, ularning urf-odatlari, anʼanalari, udumlari, diniy marosimlari bilan bogʻliq boʻlgan jihatlarining temuriylar tarixiga oid tarixiy romanlarda talqin etilishi masalasi oʻrganilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Temuriylar davriga bagʻishlab yaratilgan tarixiy romanlar kitobxonga oʻsha davr sharoiti, siyosati, davlat boshqaruvi toʻgʻrisida maʼlumotlar berishi bilan bir qatorda, oʻz navbatida, XIV-XVI asrlar oraliqidagi ajdodlarimiz kechmishi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlariga oid bilimlarimizni kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Amir Temur hamda uning vorislaridan Shohruh Mirzo, Mirzo Ulugʻbeklarning hukmronlik davridagi qizgʻin kechgan madaniy hayot tasvir etilgan romanlar sirasida Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi”, Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanlari alohida ajralib turadi. Bu asarlarda yetakchi qahramonlar temuriylar xonadoniga mansub malikalar hayoti va kechmishi tasviri orqali oʻsha davrda kechgan madaniy hayot ham keng yoritilgan. Bu orqali esa davr ijtimoiy manzarasi hamda tarixiy siymonlarning badiiy olamini yorqin gavdalantirishga erishilgan. Ushbu asarlarda tasvirlangan davr ruhi urduklar, odatlar, kiyinish, muomala-munosabat va shu kabi bir qator jihatlarida namoyon boʻlganligini kuzatish mumkin.

Qadim ertaklardan bizning ongimizda oʻrnashib olgan qirq kecha-yu qirq kunduz toʻy-u tomosha qilish udumi temuriylar saltanatida ayni amalda boʻlganligini Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanida keltirilgan quyidagi parcha orqali izohlash mumkin: “Yer yorilib odam kelayotganga oʻxshaydi, hayratlanganicha bir-biriga shipshidi yelib-yugurib xizmat qilayotgan yugurdaklar. Qirq kecha-yu qirq Kunduz toʻy boʻlarmush... Qirqmas, yigirma kundayoq hamma yoqni ship-shiydon qilishadi bular”<sup>1</sup>. Amir Temur xonadonida farzandlari va nevaralarining toʻy marosimlarida oddiy xalqqa qirq kecha-yu qirq kunduz ziyofat berish odati mavjud boʻlib, yuqoridagi parchada buning yorqin dalili koʻrinadi.

Romanda ushbu udum bilan bogʻliq yana bir jihat koʻzga tashlanadi: “Qirq kecha-yu qirq kunduz davom etgan toʻyda Amir Temurning nabiralari uylantirilib, ularning mavqelariga yarasha yer, xazina, mol-mulk, uy-joylar, bogʻ-rogʻlar ajratildi”<sup>2</sup>. Mazkur parchada toʻy marosimlarining uzoq davom etishi bilan birga bir necha shahzodalarning bir vaqtning oʻzida uylantirilishi hamda uylanish arafasida ularga

<sup>1</sup> Исaxонова Ш. Бибиxоним. – Тошкент: DAVRPRESS, 2011. – Б. 6.

<sup>2</sup> Oʻsha asar. – B. 15.

mol-mulk ajratilishi odati Amir Temur xonadonidagi urflardan biri ekanligini ko'rish mumkin.

Amir Temur xonadoni uchun yana bir odat mavjud bo'lib, "Ona lochin vidosi" romanidan olingan quyidagi parcha orqali buni ko'rish mumkin: "Yosh vafot etgan akaning bevasini inisiga xotin qilib berish odati azaldan bor edi. Sohibqironning katta o'g'li Jahongir Mirzo yigirma yoshida vafot etganida, uning ikki o'g'liga ona bo'lgan bevasi Xonzoda begim marhumning inisi Mironshoh nikohiga o'tkazilgan edi"<sup>3</sup>. Ayni ushbu voqea Sh.Isaxonovanning "Bibixonim" romanida ham o'z aksini topganligi ko'ramiz: "Xonzoda Begimni buyuk Amir shajarasi uchun emas, balki ziyrakligi, aql-farosoti uchun hurmat qilardi. Jahongir Mirzo vafotidan so'ng Xonzoda Begimni o'g'li Mironshoh Mirzo nikohiga o'tkazishining ham sababi shu edi"<sup>4</sup>. Amir Temur tomonidan bunday odatga amal qilinishiga sabab o'z oilasiga mansub bo'lgan temuriy malikalarning sarson bo'lmasligi va ularning farzandlari Temuriylar sulolasi muhitida o'sib-ulg'ayishini ta'minlashdan iborat bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Turkiy hukmdorlar oilasida mavjud bo'lgan an'analardan biri kanizak yoki hukmdorning boshqa ayollaridan tug'ilgan shahzodalarni hukmdorning bosh xotini tarbiyasiga topshirilishi edi: "Hijriy 779-yilda dunyoga kelgan shahzoda Shohruh Mirzoni hali chaqaloqligidayoq sohibqiron Tag'oy Turkon Og'oning noroziligiga qaramasdan, Bibixonimning tarbiyasiga topshirgan edi"<sup>5</sup>.

Ushbu odatdan ko'zlangan yagona maqsad, shahzodalarni yagona shaxs tarbiyasiga o'tkazish va ularni yaqinlik, ahillikka o'rgatish hamda shahzodalar o'rtasidagi nizolar, taxt uchun talashishlarning oldini olishdan iborat bo'lgan.

Turkiy xalqlar madaniyatini ko'rsatadigan yana bir jihat – bu kiyinish madaniyatidir. "Bibixonim" romanidan olingan yana bir parchaga diqqat qarataylik: "Saroymulxoxnim egniga etaklari to'pig'igacha uzun va burmali sarg'ish qashqar shohi ko'ylak, oyog'iga kumush tasmali shippak kiyib olgan edi. Boshiga tashlangan harir ro'molidan oltin po'pakli uzun sochlari shundoq ko'rinib turardi"<sup>6</sup>. Yuqoridagi parchada keltirilgan kiyinish madaniyati o'sha davrdagi zodagon ayollarning uchun xos bo'lib, qolaversa, ayollarning Sharq ayollarining ibo-hayosidan dalolat beradi. Shu bilan birga islom dini qonun-qoidalarga mos kelishini ham ko'rsatadin.

Kiyinish odati bilan bog'liq o'rnlarga to'xtalar ekanmiz, turkiy xalqlarga xos bo'lgan aza libosi tasviri ham diqqatimizni tortadi: "Ulug' Amirni birinchi eslatgan odam qizi Sultonbaxt begim bo'ldi. Boshdan-oyoq kop-qora kiyinib olgan begim kutib oluvchi xonimlar qatorining oxirida boshiga tushgan bexos zarbadan hushini yo'qotgan kimsa kabi karaxt va lol turardi"<sup>7</sup>. Sohibqiron otasining vafoti munosabati bilan boshdan oyoq qora libosga burkangan Sultonbaxt begimning tasviri davr ruhini, kishilarining o'ziga dunyoqarashini yanada yorqinroq gavdalantirishga yordam bergan.

Urf-odat masalasiga to'xtalar ekanmiz, eng avvalo, o'zbek oilalarida mavjud bo'lgan hurmat-izzat, o'zaro munosabatlar tasviri ham e'tiborimizni tortadi: "Navro'z kunlarida shu bog'da boshida oq harir ro'mol yopib, Sohibqiron qaynotasiga kelinsalom qilganlarini begim hayajon bilan eslaydi"<sup>8</sup>. Gavharshodbegim xotiralaridan olingan ushbu parchada o'sha davrda odat bo'lgan va hozirgi kunga qadar ham saqlanib qolgan kattaga hurmat, qaynota-qaynonaga bo'lgan itoatkorlik singari madaniy an'analimiz o'z aksini topgan.

Turkiy davlatlar hukmdorlari, umuman olganda, musulmon hukmdorlar orasida shariat talabi bilan to'rttagacha ayolni o'z nikohiga olish an'anasi mavjud bo'lib, bu odatga ko'pchilik hukmdorlar amal

<sup>3</sup> Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: "ADABIYOT UCHQUNLARI", 2018. – B. 37.

<sup>4</sup> Исахонова Ш. Бибиixonim. – Тошкент: DAVRPRESS, 2011. – Б. 34.

<sup>5</sup> Исахонова Ш. Бибиixonim. – Тошкент: DAVRPRESS, 2011. – Б.46.

<sup>6</sup> O'sha asar. – B. 55.

<sup>7</sup> O'sha asar. – B. 68.

<sup>8</sup> O'sha asar. – B. 77.

<sup>8</sup> Qodirov P. Ona lochin vidosi. Toshkent: "ADABIYOT UCHQUNLARI", 2018. – B.5.

qilishgan: “Xalil Sulton ham uylangan, bitta o‘g‘il ko‘rgan, lekin shariat bo‘yicha uning yana uylanishga haqqi bor edi. Shuning uchun Shodimulkni o‘z nikohiga olmoqchi bo‘ladi”<sup>9</sup>. Yuqoridagi parchada tasvirlangan holat ham turkiy xalqlar oilaviy hayoti va o‘ziga xos turmush madaniyatining bir ko‘rinishi deyish mumkin.

Turkiy xalqlar hayotida bolalar bilan bog‘liq bo‘lgan udumlar, marosimlar ham madaniy hayotimizning muhim bir bo‘g‘inini

tashkil etadi. Davr ruhini gavdalantirishga intilgan tarixiy romanlarda milliy madaniyatimiz va tariximizning ushbu qirralariga ham nazar tashlanganligini ko‘rish mumkin. Quyidagi parchada o‘zbek xalqining go‘zal udumlaridan birini aks ettirilgan: “Bolaning chillasi chiqqandan keyin Sohibqiron bobosi uni qo‘liga olib, peshonasidan o‘pgani, Gavharshod begimga qimmatbaho kiyimliklar va dur-u gavhar taqinchoqlar in‘om qilgani eng unutilmas voqea tarzida begimning yodida qolgan”<sup>10</sup>. Bunda chaqaloqning chillasi chiqqunga qadar hech kimga ko‘rsatmaslik, shu bilan birga bolaga yoshi ulug‘ insonlarning ism qo‘yishi singari madaniy an‘analarda e‘tiborga olingan.

Turkiy xalqlar madaniyatining eng yuqori nuqtasida din bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar turadi: “Juma kuni edi. Musulmonchilik farzlarini aastoydil ado etadigan Shohruh Mirzo doim juma namozini Hirotning jome masjidiga borib o‘qir edi”<sup>11</sup>. Musulmon xalqlari orasida juma kuni ulug‘ kun hisoblanib, ushbu kunda erkaklar juma namozini jamoa tarzida o‘qishni odat qilishgan va bu hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bizningcha, ushbu odat orqali insonlarni iymon-e‘tiqodli va ahil-inoq bo‘lishga o‘rgatish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Musulmon turkiy xalqlar ko‘ngli va qo‘li ochiq xalq bo‘lib, ular xayr-ehsonni o‘zlariga hamisha hamroh qilib olishgan: “Boshqa shaharlarda el-yurtga xudoyi oshlar berildi. Beva-bechoralarga xayr-ehsonlar ulashildi. Soliq to‘lashda qiynalib qolgan dehqon va hunarmandlar ro‘yxatga olinib, ularning boqimanda qarzlardan voz kechildi”<sup>12</sup>. Musulmonchilikda xayr-ehson har qanday balo-yu qazoni qaytaradigan, noxushliklarning oldini oluvchi himoya vositasi sifatida qaralgan. Qolaversa, bunga ham kishilarning o‘zaro munosabatlarigagi ahillik, hamjihatlik, mehr-oqibat nazarda tutilgan, deyish mumkin.

Musulmon turkiy hukmdorlar orasidagi odatlardan yana biri asardan olingan quyidagi parchada o‘z aksini topgan: “Hirotning jome masjidida Alouddavla Ulug‘bekning nomini xutbaga qo‘shib o‘qitgani haqida xabar keldi. Demak, hozir Ulug‘bek otasining o‘rnida qolgan oliy hukmdor deb tan olindi”<sup>13</sup>. Musulmon hukmdorlar odatiga ko‘ra xutbaga qaysi hukmdorning ismi qo‘shib o‘qilsa, shu hududda uning so‘zsiz hukmronligi o‘rnatiladi. Butun xalq ham shu hukmdorga bo‘ysunadi. Tarixiy asarlarda davr ruhini aks ettirish maqsadida e‘tiqod va madaniyat uyg‘unligi masalasiga ham e‘tibor qaratilgan.

Tarixiy asarlarda davr ruhini yorqin aks ettirishda kishilar o‘rtasida keng nishonlanadigan bayram va tantanalar tasviri ham muayyan o‘rin ajratiladi. Turkiy xalqlarning qadimdan nishonlanib kelinadigan bayramlaridan biri – Navro‘z bayrami bo‘lib, ushbu bayram bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina odatlar xalq orasida saqlanib qolgan: “Bu voqealar hut oyining oxirlarida, Navro‘z arafasida bo‘lmoqda edi. Ulug‘bek va uning bek-u navkarlari “Endi urush bo‘lmagay, Navro‘z o‘zi urushni yarashg‘a aylantiradigan bayram” deyishib, bayram tayyorgarligini ko‘ra boshlaydilar”<sup>14</sup>. Haqiqatdan ham, turkiy xalqlarning azaliy bayramlaridan biri hisoblangan Navro‘z – urushganlarni yarashtiruvchi, bemorlar holidan xabar olinuvchi, mehr-oqibatni mustahkamlovchi o‘ziga xos tenglik, ahillik bayramidir. Bunday tasvir orqali xalqlar madaniyatining yana bir ezgu qadriyatlariga asoslangan

<sup>9</sup> Qodirov P. Ona lochin vidosi. Toshkent: “ADABIYOT UCHQUNLARI”, 2018. – B.11.

<sup>10</sup> O‘sha asar. – B. 15.

<sup>11</sup> O‘sha asar. – B. 20.

<sup>12</sup> O‘sha asar. – B. 34.

<sup>13</sup> O‘sha asar. – B. 46.

<sup>14</sup> O‘sha asar. – B. ??.

jihatlarga diqqat qaratilmoqda.

Umuman olganda, turkiy xalqlarning oilaviy munosabatlari, davlat boshqaruvi, kiyinish madaniyati bilan bog'liq bo'lgan urf-odat an'analarning yorqin namunasi yuqorida tahlil qilingan asarlarda o'z aksini topgan.

**Adabiyotlar:**

1. Исахонова Ш. Бибихоним. – Тошкент: DAVRPRESS, 2011. – 302 б.
2. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: “ADABIYOT UCHQUNLARI”, 2018. – 303 b.